

**SALJUQIYLAR DAVLAT BOSHQARUVI VA UNING O‘ZIGA XOS
JIHATLARI**

Maxmudova Gulchiroy Muxiddin qizi
*O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti,
tarix yo‘nalishi, 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya; *Ushbu maqolada saljuqiylar davlatining davlat boshqaruvi sohasini yoritishga harakat qildik. Maqolada o‘rta asrlarning boshqa yirik davlatlari somoniylar va g‘aznaviylarning ham davlat boshqaruviga oid ma‘lumotlarni saljuqiylarning davlat boshqaruvi sohasi bilan taqqosladik. O‘rta asrlarda davlat boshqaruvi sohasida katta mavqega ega bo‘lgan devonlar tizimi va uning davlat boshqaruvidagi ahamiyatini saljuqiylar va ungacha bolgan davrdagi tarixini ham maqolada keltirdik. Ayrim saljuqiy hukmdorlarni davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirgan ishlarini ham tahlil qilishga harakat qildik.*

Abstract; *In this article, we tried to cover the field of public administration of the Seljuk state. In the article, we compared the information on the state administration of the other major states of the Middle Ages, the Samanids and the Ghaznavids, with the field of state administration of the Seljuks. In the article, we also presented the history of the system of devans, which had a great position in the field of public administration in the Middle Ages, and its importance in public administration during the Seljuks and before that. We also tried to analyze the work done by some Seljuk rulers in the field of public administration.*

Kalit so‘zlar; *Davlat boshqaruvi, sulton, devon, dargoh, imperiya, xutba, voliy, monarxiya, Nizomulmulk, hojib.*

Keywords; *Government, Sultan, Dewan, Dargah, Empire, Khutba, Governor, Monarchy, Nizamulmulk, Hajib.*

Saljuqiylar davlati o‘rta asrlarda tashkil topgan bo‘lib, sulola asoschisi Saljuq ibn Do‘kak hisoblanadi. Saljuqiylar davlatiga esa nabirasi To‘g‘rulbek asos solgan. Ushbu davlat juda keng hududlarni egallab olgan, o‘rta asrlarning buyuk davlati bo‘lgan. Shuning uchun ham davlatning boshqaruv tizimi ham o‘ziga xos edi. Davlatning kuchaygan davrida markaziy boshqaruv tizimi ham cho‘qqisiga chiqqan. Buni, ayniqsa, Alptegin va Malikshohning hukmronlik davrida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ushbu sultonlar davrida bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan Nizomulmulkning davlatni yuksalishida xizmatlari katta bo‘lgan. U saljuqiy shohlarga 30 yil halol vazirlik qildi. Nizomulmulk davlatni boshqarishda ibrat qilib ko‘rsatilib, uning fazilatlariga quyidagicha ta‘rif beriladi; ”Nizomulmulkning yomon qilmishlari kam bo‘lib xayrli ishlari ko‘proq edi. U Hajga bormoqchi bo‘lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi; ”Malikshoh davlatining xizmatida bo‘lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlarining va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordamim Haj qilish bilan barobardir”. Bundan ko‘rinadiki, Nizomulmulk davlatga va xalqqa xizmatni ibodat

darajasida ko'targan shaxs edi. Nizomulmulk o'zi juda oqil va ishbilarmon, uzoqni ko'zlab ish ko'radigan vazir edi. Uning fikricha, raiyat ahli zul-u sitam ko'rgan har bir kishi umuman norozi bo'lganlar amaldorlar va hokimdan tortib to vazir va shohning qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur edi. U yozadi: "Podsho ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudovand podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib xaftada ikki marotaba ularning jazosini beradi degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o'ylab qo'rqib bedodlik qilmaydilar".[1]

Davlat boshqaruvida ma'lum mansablar juda katta siyosiy rol o'ynagan bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin;

Ulug hojib – sultonning eng yaqin kishisi, dargoh va devonlar o'rtasidagi aloqalarni olib boruvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor hisoblangan. Ushbu lavozim bevosita sulton bilan aloqa bog'laganligi uchun juda ahamiyatli bo'lgan. Demak, sulton faoliyatida hojiblik xizmati alohida e'tiborga loyiq bo'lgan. O'rta asrlarning yana bir sulolasi g'aznaviyalar davlatida ham hojiblik xizmatining turli shakllari bo'lib, ular davlat va jamiyat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Bu lavozimga faqat ishonchli shaxslardangina tayinlangan. Hatto, g'aznaviyalar davlati asoschisi Sobuqtegin ham dastlab hojib bo'lib xizmat qilganligidan ham buni bilib olishimiz mumkin.

Amiri xoris – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor hisoblangan. Somoniylar sulolasi siyosiy hayotida esa ushbu vazifa bilan sohibi xoras shug'ullangan bolib, hukmdor farmonlarini ijrosini ta'minlagan.

Salohdor – saroydagi qurol-aslaha boshligi, hukmdor narsalariga ham javobgar amaldor. Bu lavozim ham davlat hayoti uchun juda muhim bo'lgan. Chunki saljuqiylar davlatini tinchligini saqlash uchun doimiy kurashlar olib borgan. Yo'llarni qaroqchilardan tozalagan, turli xil siyosiy oqimlarga qarshi jiddiy kurash olib borgan.

Xos vakil – dargoh ishlarini boshqaqaruvchi amaldor hisoblangan. Dargohni ahvolini doimiy nazorat qilib sultonga xabar berib turgan.

Jangdor – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullangan amaldor. Somoniylar boshqaruv tizimida ham shunday vazifa bo'lib, ushbu vazifani bajargan shaxs hojib deb atalgan. Undan tashqari saljuqiylar saroyida jomador, sharobdor, choshnigir, sarhang, miroxur, tashtdor kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan. Sulton Malikshoh I davrida tashtdorlik mansabi bilan anushtaginiylar sulolasi asoschisi Anushtagin shug'ullangan. Eng ishonchli kishilarga taqdim etiluvchi ushbu mansab egasi tez orada sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi va ko'p o'tmay unga Xorazmni boshqarish topshiriladi.

Saljuqiylar davlatida devonlar faoliyati ham davlat davlat boshqaruvini asosini tashkil qilgan. Dastlabki, devonlar tizimi arab xalifaligida mavjud bo'lgan. Ushbu devonlar uchga bo'lingan; devon al-mag'rib, devon al-xaraj, devon al-mashriqdan iborat

edi. Aynan Movarounnahr masalasi bilan devon al- mashriq devoni shug‘ullangan. Davrlar o‘tib devonlar takomillashgan[3]. Saljuqiylar davlat boshqaruvida ham buning yaqqol misolini ko‘rish mumkin ya'ni vaziyatga qarab devonlar va ularning faoliyati takomillashib, o'zgarib borgan.

Nizomulmulk davlat boshqaruviga oid “Siyosatnoma” nomli asar yozadi. Ushbu asarda har bir g‘oyani isbotlash uchun muayyan tarixiy va afsonaviy shaxslar, sulolalar va saltanatlar tarixidan, o‘tmishidan foydalanib, tegishli voqealardan misollar keltiradi. Davlat boshqaruvi va hukumatchilikka u 875-999 yillarda hukm surgan somoniy hamda g‘aznaviy sultonlarni namuna qilib ko‘rsatadi. Bu sulola vakillarini nihoyatda ulug‘lab, ba‘zan ularga xos bo‘lgan fazilat va yaxshi xislatlarni, xulq-atvorlarni e‘zozlab, zamona shohlarida ham shunday sifatlarni ko‘rmoqchi bo‘ladi va shu yo‘l bilan ularga davlatni boshqarish borasida samimiy maslahatlar beradi. Siyosatnoma asari mazmuni jihatdan sermazmun asardir. Asarda butun davlat boshqaruviga oid barcha narsalar, qozi va qozilik masalalari, amaldorlarni tayinlash, lavozimidan olish, hatto, moliya va xo‘jalik ishlari, soliq, xiroj, zakot, vaqf ishlari, podshohning hayoti bilan bog‘liq masalalar ham o‘rin olgan. Nizomulmulk davlat boshqaruvidan tashqari yoshlarni ilm olishi uchun ham shart-sharoitlar yaratib bergani ham tahsinga loyiq. Uning tashabbusi bilan Bog‘dod, Nishopur, Hirot, Balx, Marv kabi shaharlarda oliy madrasalar ochib ularda yoshlarni o‘qishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Saljuqiylar boshqaruviga kelsak, davlat tepasida oliy hukmdor turgan. Boshqa sulolarda bo‘lgani kabi sulton nomidan xutba o‘qilib, tanga zarb etilgandagina rasman tan olingan. (Xutba juma namozi oldidan va hayit namozidan keyin masjid imomining va'zxonligi , diniy pandnasihati). O‘rta asrlarda xutbaning muhim siyosiy ahamiyati bo‘lgan. Xutbada namozxonlar mamlakat hukmdorini ismimni aytib, uning haqqiga duo qilishlari lozim bo‘lgan. Saljuqiylar davlatida ham buning yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin. Sultonning mulk, yer-suv, taqsimlash, muhim davlat boshqaruv mansablariga tayinlash, amaldorlar ishlarini nazorat qilish, kabi vakolatlari mavjud bo‘lgan. Saljuqiylarning boshqaruv tizimi somoniylar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar singari ikkiga; dargoh va devonlarga bo‘lingan.[2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nizomulmulk. " Siyosatnoma". — T.: Yoshlar matbuoti, 2022.
2. Зиё Азамат "Узбек давлатчилиқ тарихи". Т.:Шарк, 2000.
3. Sagdullayev A. "O‘zbekiston tarixi". I qism. T.:Fan, 2018.
4. Banfort A. "Musulmon sulolalar". T.: Fan, 2007.
5. Usmonov Q. , Sodiqov N. , Oblomurodov N. , "O‘zbekiston tarixi". I qism. T.:Xalq merosi, 2002.
6. Shamsutdinov R. , Karimov Sh. , Ubaydullayev O. , "Vatan tarixi". I qism. T.:Sharq, 2010